

## **PAXTACHILIK VA DEHQONCHILIKKA IXTISOSLASHGAN FERMER XO‘JALIKLARINING SUG‘ORILADIGAN YERLARINI NORMATIV QIYMATINI ANIQLASH**

*Inomov R.N.*

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy  
maktabi magistranti MBA – agrobiznes mutaxassisligi tinglovchisi*

**Annotasiya.** Paxtachilik va dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining sug‘oriladigan erlarini normativ qiymatini aniqlash haqida so‘z yuritilgan.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng iqtisodiy islohotlar dastlab agrar sektorda boshlandi. Chunki mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi va uning asosi bo‘lgan yer resurslari boshqa sohalardan farqli o‘laroq bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni bajaradi. U insonlar uchun yashash joy, ish quroli va ishlab chiqarish predmeti, daromad manbai bo‘lishi bilan bir qatorda aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan ta‘minlaydi va sanoat mahsulotlari uchun bozor vazifasini bajaradi. Yer baholash bo‘yicha tadbirlar tizimi yerga bo‘lgan mulkchilik shakllarini rivojlanishida yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etishda, ularni hududiy tashkil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Bunda yerning muhim xususiyati hisoblangan tuproq unumdorligini sifati jihatdan baholash ya‘ni yerlarni baholash ma‘lumotlaridan foydalanish ayniqsa katta ijobiy samara beradi. Shu sababli ham yer tuzish ishlarini bajarishda, ayniqsa yer maydonlaridan olinadigan yagona yer solig‘ini aniqlashda yer baholash ma‘lumotlaridan foydalanish ham ilmiy ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining normativ hosildorligi tuproqlar o‘rtacha bonitet bali bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari, bog‘lar va tokzorlarning tuproq bonitetining bir bonitet baliga mos normativ hosildorlikning yig‘indisi sifatida ushbu Nizomning [2-ilovasiga](#) muvofiq hisoblab chiqiladi.

1 ga maydondagi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi tegishli ma'muriy mintaqadagi normativ qiymatni aniqlash davridan oldin yuzaga kelgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilishning o'rtacha yillik narxlariga bog'liq ravishda qiymat ifodasida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$Npsk = Nu \times Srk$ , bunda:

Npsk - 1 ga qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm;

Nu - qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ hosildorligi, s/ga;

Srk — dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tegishli turiga o'rtacha yillik narx, ming so'm/s, paxta xom ashyosi va boshqali don ekinlarining xarid narxi ming so'm/s;

Ozuqa ekinlarining normativ unumdorligi ushbu Nizomning [3-ilovasiga](#) muvofiq ularning hosildorligini bug'doy ekvivalent hosildorligiga aylantirish yordamida hisoblab chiqiladi. Sug'oriladigan 1 ga haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foydani aniqlashda har bir qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo'yicha qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlashning shu yildan oldingi yilda shakllangan ekin maydonlari tuzilmasi qo'llaniladi. Har bir qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo'yicha oldingi yil uchun qishloq xo'jaligi ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat statistika ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Ma'lumotlar statistika organlari tomonidan «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasiga har yili 1 aprelgacha taqdim etiladi. O'tgan yildagi ekin maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining mintaqaviy bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlari bo'yicha joriy yilda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish rejasiga muvofiq ekin maydonlari tuzilmasi qo'llaniladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari bo'yicha foydaning hisoblab chiqilgan miqdori qishloq xo'jaligi ekin maydonlari sifatidan kelib chiqib foizlarda mahsulot qiymatiga va tuman bo'yicha o'rtacha tuproqlarning har bir klassi bo'yicha mahsulotlarni yetishtirishga o'rtacha xarajatlarga bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan

hisoblab chiqiladi. Tuproqlarning alohida past unumdorli klasslari bo'yicha salbiy qiymatlarda foizlarda foydaning hisoblab chiqilgan miqdori olingan taqdirda salbiy qiymatli yerning qiymatini istisno qilish uchun 0,01 foyda foizi qo'llaniladi. Mahsulot qiymati to'g'risidagi o'rtacha ma'lumotlar va biror-bir o'simlik bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o'rtacha xarajatlar mavjud bo'lmagan taqdirda boshqoli don ekinlari bo'yicha hisoblab chiqilgan ma'lumotlar qo'llaniladi. Sifati turlicha bo'lgan yerlar bo'yicha 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{np} = \frac{\frac{N_{psk_1} \times P_{k_1}}{100} \times R_{n_1} + \dots + \frac{N_{psk_n} \times P_{k_n}}{100} \times R_{n_n}}{P_{k_1} + \dots + P_{k_n}}, \text{ bunda:}$$

$R_{pr}$  - 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqiladigan foyda, ming so'm;

$N_{psk_1}$ - $N_{psk_n}$  - qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm/ga;

$P_{k_1}$ - $P_{k_n}$  - ekin maydonlari, ga

$R_{n_1}$ - $R_{n_n}$  - tuproq sifati turlicha bo'lgan yerlarda turli xil ekinlardan olinadigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi foydasining hisoblab chiqilgan miqdori, foizlarda.

18. 1 ga sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_n = \frac{R_{pr} \times K_1 \times K_2 \times K_3}{P} \times 100, \text{ bunda:}$$

$S_n$  - sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati, ming so'm/ga;

$R_{pr}$ - sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foyda, ming so'm/ga;

$P$  - hisoblab chiqiladigan foydaning kapitallashuvi foizi;

$K_1$  - xo'jalik yuritish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olinadigan mintaqaviy koeffitsient;

$K_2$  - sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsient;

$K_3$  - hosilning nobud bo'lish foizi hisobga olinadigan koeffitsient;

Hisoblab chiqilgan foydaning kapitallashuvi foizi 5% miqdorida qabul qilinadi.

Xo'jalik yuritish darajasi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi intensivligini hisobga oladigan mintaqaviy koeffitsient ushbu Nizomning [4-ilovasiga](#) muvofiq qabul qilinadi.

Tovar ishlab chiqaruvchining mablag'lari hisobidan sug'orish uchun xo'jalik ichki sug'orish tizimiga suv chiqarish usuli (oqar suv yoki mashina usuli) hisobga olingan koeffitsient respublika bo'yicha yagona ifodada barcha sug'orish maydonlari bo'yicha oqar suv bilan sug'orish ulushiga bog'liq tarzda mazkur Nizomning [5-ilovasiga](#) muvofiq qabul qilinadi. Kimyoviy moddalarni qo'llash taqiqlangan muhofaza mintaqalarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari joylashtirilgan taqdirda hosil nobud bo'lishi va tegishli ravishda qimmatlilik yo'qotilishini hisobga oladigan koeffitsient ushbu Nizomning [6-ilovasiga](#) muvofiq belgilangan tartibda majburiyatlar bilan cheklangan yer uchastkasidagi qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining bonitet bali va ulushiga qarab respublika bo'yicha yagona ifodada qabul qilinadi. 1 ga bog'lar va tokzorlarning normativ qiymati mazkur Nizomning [13, 14, 16-22-bandlarida](#) nazarda tutilgan tartibda sug'oriladigan haydov yerlarning normativ qiymatiga o'xshash tartibda aniqlanadi. 1 ga sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati 0,1 koeffitsienti qo'llanilgan holda sug'oriladigan haydov yerlarning qiymati bo'yicha aniqlanadi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yeri bo'lmagan taqdirda, sug'oriladigan bo'z yerlarning normativ qiymati tuman (shahar) sug'oriladigan haydov yerlari o'rtacha asosiy ekin maydonlari tuzilmasidan foydalanilgan holda hisoblab chiqiladi. Mevazorlar, tutzorlar va boshqa sug'oriladigan ko'p yillik daraxtlar ekilgan yerlarning normativ qiymati ushbu xo'jalikning sug'oriladigan haydov yerlari normativ qiymati bo'yicha, 0,4 koeffitsientini qo'llash bilan qabul qilinadi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan

haydov yeri bo'lmagan hollarda bunday yerlarning normativ qiymati tuman (shahar) sug'oriladigan haydov yerlari bo'yicha asosiy ekin maydonlari tuzilmasidan foydalangan holda shartli ravishda hisoblab chiqiladi. Issiqxonalar bo'yicha 1 ga yerning normativ qiymati sug'oriladigan haydov yerlar qiymatiga o'xshash tartibda tuman, shahar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosida 2,2 koeffitsientini qo'llash bilan aniqlanadi. 1 ga lalmi haydov yerning normativ hosildorligi, normativ unumdorligi, hisoblab chiqilgan miqdori va normativ qiymati ushbu Nizomning [13 - 20](#) va [22-bandlariga](#) muvofiq aniqlanadi. Bunda xo'jalik ichki sug'orish tizimiga suv chiqarish usulini hisobga olingan holda koeffitsient normativ qiymatni aniqlashda qo'llanilmaydi. Ko'p yillik lalmi daraxtlar lalmi haydov yer sifatida, lalmi bo'z yerlar esa lalmi haydov yerlari sifatida 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda baholanadi. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchisida lalmi haydov yerlar bo'lmagan hollarda, uning normativ qiymati shartli ravishda tuman, shahar lalmi haydov yerlari bo'yicha o'rtacha ekin maydonlari tuzilmasidan foydalangan holda hisoblab chiqiladi. Tabiiy yem-xashakbop ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ning normativ qiymati yaylovlarning tiplaridan va ozuqa birligida ifodalangan hosildorlikdan kelib chiqib, ushbu Nizomning [7-ilovasiga](#) muvofiq ularni bug'doyning ekvivalenti hosildorligiga tegishli ravishda qayta hisoblab chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Ma'muriy tumanda ozuqa ekin maydonlarining o'rtacha hosildorligi tegishli balandlik mintaqasidagi yaylovlarning hosildorligi va har bir tipining maydoni hisobga olingan holda aniqlanadi. 1 ga ozuqa ekin maydonlarining normativ mahsuldorligi bug'doy hajmiga qayta hisoblab chiqilgan ozuqa birliklaridagi o'rtacha hosildorligi va normativ qiymatini aniqlash davridan oldingi yildagi o'rtacha xarid narxining hosilasi sifatida aniqlanadi. 1 ga ozuqa ekin maydonlarining normativ qiymati ushbu Nizomning [17 - 20-bandlariga](#) muvofiq haydov yerga o'xshash tarzda aniqlanadi, bunda ozuqa ekin maydonlarining unumdorligi ular bilan bog'liq bo'lgan balandlik mintaqalarida joylashganligiga qarab foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi miqdorlarda qabul qilinadi:

cho'l mintaqasida - 3,2 foiz;

tog'oldi mintaqasida - 4,1 foiz;

tog' mintaqasida - 7,0 foiz.

Yaylovlarning sug'oriladigan mintaqalarga tutashgan uchastkalari sug'oriladigan haydov yerga mos tarzda 0,01 koeffitsientini qo'llangan holda baholanadi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida sug'oriladigan haydov yerlar bo'lmagan taqdirda, bunday yerlarning normativ qiymati shartli ravishda tumanning sug'oriladigan mintaqasi bo'yicha asosiy ekin maydonlarining tuzilmasi qo'llanilgan holda hisoblab chiqiladi.

Baliqchilik hovuzlari, imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati faqat belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo'yicha aniqlanadi. Bunda imoratlar, inshootlar va xonadonlar deganda ularning faoliyat ko'rsatishi va xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan imoratlar, inshootlar, omborlar, dala shiyponlari, bostirmalar, xonadonlar va maydonlar tushuniladi. Baliqchilik hovuzlari bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati tuman bo'yicha sug'oriladigan haydov yerlarning o'rtacha normativ qiymati bo'yicha aniqlanadi. Imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo'lgan yerlarning normativ qiymati joylashgan mintaqasi va ixtisoslashuviga qarab asosiy qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati bo'yicha 2 koeffitsientini qo'llagan holda aniqlanadi.

Xo'jaliklarning ixtisoslashuvi hisobga olingan holda asosiy qishloq xo'jaligi ekin maydonlari deganda:

sug'oriladigan yerlardagi paxtachilik-g'allachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, sholichilik, tamakichilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun - sug'oriladigan haydov yerlar (sug'oriladigan mintaq);

sug'oriladigan yerlardagi bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari uchun - sug'oriladigan bog'lar, bog'lar bo'lmasa - tokzorlar yoki boshqa ko'p yillik daraxtlar bilan band bo'lgan yerlar (sug'oriladigan mintaq);

lalmi yerlardagi bog‘dorchilik-uzumchilik xo‘jaliklari uchun - lalmi bog‘lar, bog‘lar bo‘lmasa - tokzorlar yoki boshqa ko‘p yillik daraxtlar bilan band bo‘lgan yerlar (lalmi-yaylov mintaqa);

yaylovlardagi qorako‘lchilik va chorvachilik xo‘jaliklari uchun - yaylovlar (lalmi-yaylov mintaqa);

lalmi yerlardagi g‘allachilik va chorvachilik xo‘jaliklari uchun - lalmi haydov yerlar (lalmi-yaylov mintaqa) tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari bo‘lmagan taqdirda, imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo‘lgan yerlarning normativ qiymati (sug‘oriladigan yoki lalmikor-haydov) asosiy qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari joylashgan mintaqada o‘rtacha tuman normativ qiymati bo‘yicha 2 koeffitsienti qo‘llangan holda aniqlanadi.

O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyiha instituti «O‘zdavyerloyiha» DILning hududiy bo‘linmalari tomonidan ma‘muriy tuman (shahar)ning har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari normativ qiymatini aniqlash natijalari bo‘yicha hisobot quyidagi tarkibda tuziladi:

**tushuntirish xati;**

qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati va tuman (shahar) bo‘yicha o‘rtacha normativ qiymat to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Surxondaryo shahri bo‘yicha hisobotlar tushuntirish xatidan, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining tumanlar bo‘yicha normativ qiymat va ma‘muriy birlik bo‘yicha o‘rtacha normativ qiymat to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan iborat bo‘ladi.

Tuman (shahar) bo‘yicha hisobotlar yer-kadastr axboroti sifatida har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha elektron shaklda normativ qiymat taqdim etilgan holda tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastrining tegishli bo‘limlariga topshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Surxondaryo shahri bo‘yicha hisobotlar ishlarni bajarish uchun berilgan topshiriqda belgilangan hajmlar va nusxalarda tayyorlanadi.

Hisobotlarning bir nusxasi dastlabki axborotning asl materiallari bilan birgalikda tashkilotning - ishlarni bajaruvchining arxivida saqlanadi.

Har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha ushbu Nizomning [8- ilovasidagi](#) shaklga muvofiq qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va boshqa baholangan yerlarning normativ qiymati to‘g‘risida ma’lumotnoma tuziladi. Ma’lumotnoma qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisiga topshirish uchun tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlariga taqdim etiladi. Normativ qiymatning hisob-kitobi natijalari 100 so‘mgacha bo‘lgan aniqlikda taqdim etiladi. Tadqiqot ob’ekti sifatida olingan Toshkent viloyati Bo‘ka tumani M.Ulg‘bek nomli massiv hududida o‘tkazilgan yer kadastri ishlari shuni ko‘rsatdiki, xo‘jalikka birlashtirilgan 1412,0 ga yer maydonidan 1369,6 ga maydon massiv uchun doimiy egalik qilish huquqi bilan berilgan. Yer kadastri xizmati tomonidan olib berilgan tuproq tekshiruvchilariga asosan tuproqlarning kelib chiqish xususiyatlari, xo‘jalikning iqlim sharoitlarini hisobga olib xo‘jalik hududida tuproq bonitrovkasi o‘tkazilgan. Uning ma’lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1- jadval

M.Ulg‘bek nomli massivida o‘tkazilgan tuproq bonitrovkasining qaydnomasi

Tuproq xillari	Bonitrovkaning yuqori ballari	Tuzatma koeffitsentlar				Hisoblangan ball	M <sup>1</sup> aydoni, g	Sifati
		3- ilova	4- ilov a	5- ilova	6- ilova			
1	100	0,95	0,85	0,90	0,90	68	21,6 <sup>1</sup>	Yaxshi
2	100	0,90	0,80	0,85	0,80	71	32 <sup>1</sup>	Yaxshi



3	80	0,95	0,95	0,95	0,95	42	8,5	9	O'rtacha dan past
4	80	0,80	0,9	0,7	0,7	48	9,6	5	O'rtacha dan past
5	80	0,85	0,80	0,7	0,90	41	12,3	2	O'rtacha dan past
6	80	0,80	0,80	0,90	0,85	58	03,2	1	O'rtacha
7	80	0,85	0,85	0,90	0,80	40	6,8	7	O'rtacha dan past
O'rtacha							3	5	

Yuqorida keltirilgan tuproq bonitrovkasi ma'lumotlari asosida M.Ulg'bek nomli massividagi qishloq xo'jalik ekinlari, jumladan paxtaning hosildorligini aniqlash imkonini beradi. Massivda o'tkazilgan yer baholash jumladan, tuproq bonitrovkasi ma'lumotlaridan foydalangan holda qishloq xo'jalik ekinlarining hosilorligi rejalashtiriladi. Tuproqlarning xilma-xil unumdorligi sharoitida qishloq xo'jalagi ekinlarini hosildorligini hisoblash uchun topilgan tuproq boniteti balini shu ball bahosiga ko'paytirish zarur. Qulay tuproq sharoiti 100 ball qishloq massiv ekinlarining hosildorlik ko'rsatkichlari turlicha baholanadi. Bonitet ballari va tuproq xillari bo'yicha ekinlarning hosildorligini quyidagi jadval bo'yicha hisoblash mumkin.

2- jadval

Tuproq xillari bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini hisoblash

Tuproq xillari	Haydalma maydoni, ga	Bonitet bali	1 ball bahosi	Rejalashtirilgan hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, s
1	121,6	68	0,4	27,2	3307,52
2	132	71	0,4	28,4	3748,8
3	98,5	42	0,4	16,8	1654,8
4	59,6	48	0,4	19,2	1144,32

5	212,3	41	0,4	16,4	3481,72
6	103,2	58	0,4	23,2	2394,24
7	76,8	40	0,4	16	1228,8

Shundan keyin ekinlar hosildorligini bilan tuproqning tabiiy xususiyatlari o'rtasidagi aloqani aniqlaymiz. Bunda ekinlar hosildorligini tuproqning bir tabiiy xususiyati yoki ekinlar guruhining barcha guruhlari bilan uzviy bog'liqlikni ko'rsatuvchi korrelyatsiya (o'zaro bog'liqlik) koeffitsentini aniqlaymiz. Chiziqli korrelyatsiya koeffitsentini quyidagi folmula yordamida aniqlaymiz.

$$R_{xy} = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \sum y}{n}}{\sqrt{\left[ \sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n} \right] \left[ \sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n} \right]}}; \quad (4)$$

bu erda:  $R_{xy}$ - chiziqli korrelyatsiya koeffitsenti;

$x$  - argument, iqtisodiy faktor;

$y$  - funksiya, ekinlarning hosildorligi;

korrelyatsiya koeffitsenti (-1, 0, +1) oralig'idagi qiymatlarga ega bo'ladi. Musbat belgisi bevosita bog'liqlikni, manfiy belggi esa teskari aloqani bildiradi. Agar korrelyatsiya koeffitsenti «0» bo'lsa, chiziqli aloqadorlik kuzatilmaydi. Agar « $r=0,70$ » va undan katta bo'lsa, aloqadorlik uzviy hisoblanadi. Juft chiziqli korrelyatsiyani hisoblash quyidagi jadval yordamida bajariladi.

3- jadval

Hosildorlik hamda tuproq tabiiy xossalari o'rtasidagi koeffitsentini hisoblash

Tuproq xillari	Tuproq guruxlari	Hosildorlik s/ga (u)	Bonitet balli (x)	$x^2$	$y^2$	$xu$
1	1	27,2	68	4624	739,8	1849,6

2	2	28,4	71	5041	806,6	2016,4
3	3	16,8	42	1764	282,2	705,6
4	4	19,2	48	2304	368,6	921,6
5	5	16,4	41	1681	269,0	672,4
6	6	23,2	58	3364	538,2	1345,6
7	7	16	40	1600	256	640
		<b>147,2</b>	<b>368</b>	<b>20378</b>	<b>3260,48</b>	<b>8151,2</b>

$$R_{xy} = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \sum y}{n}}{\sqrt{\left[ \sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n} \right] \left[ \sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n} \right]}} =$$

$$= \frac{8151,2 - \frac{368 \cdot 147,2}{7}}{\sqrt{\left[ 20378 - \frac{(368)^2}{7} \right] \cdot \left[ 3260,48 - \frac{(147,2)^2}{7} \right]}} = 0,78$$

Belgilangan omilning ishlab chiqarish natijasiga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun determinatsiya koeffitsentini hisoblaymiz;

$$d=r^2, \quad d=0,608 \quad (5)$$

Determinatsiya koeffitsenti korrelyatsiya koeffitsentining kvadratiga teng.

Korrelyatsiya koeffitsentining to'g'riligi Styudent me'zoni (tf) yordamida aniqlanadi, ya'ni uning haqiqiy qiymati nazariy qiymati bilan solishtiriladi. Agar Styudent me'zonining haqiqiy qiymati (tf) nazariy qiymatdan (tst) dan kam bo'lmasa chiziqli korrelyatsiya koeffitsentini to'g'ri deb qabul qilinadi.

Styudent me'zonining haqiqiy qiymati quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$t\phi = \frac{r}{mr} = \frac{0,608}{0,27} = 2,25 \quad (6)$$

$$mr = \sqrt{\frac{1-r^2}{n-2}} = \sqrt{\frac{1-0,608^2}{7-2}} = \sqrt{\frac{0,392}{5}} = 0,27 \quad (7)$$

bu erda:  $mr$  – o'rtacha kvdratik xato,

Styudent me'zonining nazariyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$tct = r + \frac{4}{n-2} = 0,608 + \frac{4}{7-2} = 1,408 \quad (8)$$

bu erda:  $n$ - kuzatuvchilar soni;

Shundan keyin o'zgaruvchilar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikning tenglamasini hisoblaymiz. Juft chiziqli bog'liqlik tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = a + bx = 1,9 + 0,9x = 2,8 \quad (9)$$

bu erda;  $u$ - funksiya;

$x$ - argument;

$b$ - regressiya koeffitsenti;

$a$ - tenglamaning ozod hadi.

Tenglamaning «a» hamda «b» parametrlari tenglamalar sistemasi yordamida aniqlanadi. Hisoblashlar uchun bilimchi ma'lumotlar olinadi hamda tenglamalarga qo'yish bilan aniq tenglamalar sistemasi hosil qilinadi. bir qancha matematik usullardan foydalangan holda tenglamalar echiladi va «a» hamda «b» aniqlanadi. Aniqlangan qiymatlar tenglamaga qo'yiladi hamda iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Massivda o'tkazilgan tuproq bonitrovaksi ma'lumotlari asosida massivdagi fermer xo'jaliklari xududlari iqtisodiy (me'yoriy) baholanadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish uchun anchagina muhim hisoblangan yerning tabiiy xususiyatlari bo'yicha qiyosiy bahosi (tuproq bonitrovkasi) va qiymat ko'rsatkichi sifatida sug'oriladigan yerlarning me'yoriy bahosini aniqlash uchun asos qilib olindi.

$$Npsk = Nu \times Srk, \text{ bunda:} \quad (10)$$

$N_{psk}$  — 1 ga qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm;

$N_u$  — qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ hosildorligi, s/ga;

$S_{rk}$  - dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tegishli turiga o'rtacha yillik narx, ming so'm/s, paxta xom ashyosi va boshqali don ekinlarining xarid narxi ming so'm/s;

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nuqtai nazaridan bonitet ballari qishloq xo'jalik ekinlarini kadastri bo'yicha hisoblangan hosildorliklari orqali belgilanadi. Bu esa o'z navbatida 100 ballik baholash shkalasidan s/ga hisobida bir ballga to'g'ri keladigan aniq bir qishloq xo'jalik ekinlari uchun hisoblanadi.

Sifati turlicha bo'lgan yerlar bo'yicha 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{np} = \frac{\frac{H_{nck1} \times \Pi_{K1}}{100} \times P_{H1} + \dots + \frac{H_{nckn} \times \Pi_{Kn}}{100} \times P_{Hn}}{\Pi_{K1} + \dots + \Pi_{Kn}}, \text{ bunda:}$$

$P_{rp}$  - 1 ga sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqiladigan foyda, ming so'm;

$N_{psk1}$ - $N_{pskn}$  - qishloq xo'jaligi ekinlarining normativ unumdorligi, ming so'm/ga;

$\Pi_{K1}$ - $\Pi_{Kn}$  - ekin maydonlari, ga

$R_{n1}$ - $R_{nn}$  - tuproq sifati turlicha bo'lgan yerlarda turli xil ekinlardan olinadigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi foydasining hisoblab chiqilgan miqdori, foizlarda.

$$P_{np} = \frac{\frac{H_{nck1} \times \Pi_{K1}}{100} \times P_{H1} + \dots + \frac{H_{nckn} \times \Pi_{Kn}}{100} \times P_{Hn}}{\Pi_{K1} + \dots + \Pi_{Kn}} = \frac{1242,68 \times 48,90}{100} \times 14,1 = 175,2$$

1 ga sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_n = \frac{R_{pr} \times K_1 \times K_2 \times K_3}{P} \times 100, \text{ bunda: (11)}$$

**P**

$S_n$  - sug'oriladigan haydov yerning normativ qiymati, ming so'm/ga;

$R_{pr}$  - sug'oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foyda, ming so'm/ga;

$P$  - hisoblab chiqiladigan foydaning kapitallashuvi foizi;

$K_1$  - xo'jalik yuritish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olinadigan mintaqaviy koeffitsient;

$K_2$  - sug'orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsient;

$K_3$  - hosilning nobud bo'lish foizi hisobga olinadigan koeffitsient;

Hisoblab chiqilgan foydaning kapitallashuvi foizi 5% miqdorida qabul qilinadi.

$$C_{\text{н}} = \frac{P_{np} \times K_1 \times K_2 \times K_3}{P} \times 100 = \frac{175,2 \times 1,2 \times 0,987 \times 0,999}{5} \times 100 = 4204,8$$

Umumiy tarzda massiv sug'oriladigan yerlarning iqtisodiy (me'yoriy) natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

**XULOSA.** Tadqiqotda M.Ulug'bek nomli massivida yer baholash ishlarini o'tkazdim. Dastlab massivda o'tkazilgan yer baholash ishlari natijalarini tahlil qildim. Unga ko'ra massivning o'rtacha bonitet balli 52 ballni tashkil etdi. Yer baholash ma'lumotlari asosida massivdagi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorliklarini hisobladim.

Massivdagi mavjud fermer xo'jaliklarining bonitet ballari bo'yicha yerlarning me'yoriy qiymatlarini aniqladim. Shunga ko'ra yer baholash ma'lumotlari asosida har bir fermer xo'jaliklarning ball bonitetlari va bir gektar yerning me'yoriy qiymatlarini hisobga olgan holda har bir fermer xo'jaligi bo'yicha yagona yer solig'i aniqlandi. O'z navbatida mamlakatimizning kelajagi qishloq xo'jalik ekinlarini xalqimizga yetarli darajada etkazib berish uchun zamin yaratadi. Shunday ekan yerlarni baholash ishlarini to'g'ri va aniq o'tkazish nafaqat qishloq xo'jaligida balki iqtisodiyot tarmoqlarida ham katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzishni loyihalash». Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2004
2. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzish iqtisodi». Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002
3. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzishning ilmiy asoslari». Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002
4. Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R., G'ofirov A.J. «Yer kadastri». T.: Cho'lpon, 2002
5. Дегтярев И.В. «Земельный кадастр». М.:Колос, 1979
6. Дегтярев И.В. «Проблемы земельного кадастра». М.:Колос, 1979
7. Магазинщиков Т.П. «Земельный кадастр». Лвов. Издательство Львовского университета, 1986
8. Nomozov X.Q., Madrimova K.I., Turdimetov Sh.M. «Tuproq bonitirovkasi». T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004
9. Qo'zиеv R.Q., Yuldashev G'.Yu., Akramov I.A. «Tuproq bonitirovkasi». T.: Moliya, 2004
10. Qurbonov E.Q., Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R. «Yer kadastri asoslari». T.: TTESI, 1999
11. Ли В.Н. «Плодородие орошаемых земель Узбекистана». T.: Фан, 1989
12. Nigmatov A.N. «Yer huquqi». T.: Islom universiteti, 2001
13. Tolipov G'.A. va boshq. «O'zbekiston Respublikasi er kadastri». T.:Agroinform, 1994
14. Артеменко В.В. и др. «Кадастр земель населённых пунктов». М.:Колос, 1997
15. Turpov I.T., Nomozov X.Q. «Yer kadastri» Ma'ruza matnlari. T.: TDAU, 2003